

MIRMUHSINING “TEMUR MALIK” ROMANIDA
AYOLLAR OBRAZI IFODASI

Muazzam Mamajonova

*Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Maqolada Mirmuhsinning “Temur Malik” romanida ayollar obrazi, ularning sabr-qanoati, e'tiqodi, qahramonliklari ochib beriladi. Asarning badiiy talqini izohlanadi.

Kalit so'z: Temur Malik, Turkon xotun, raqqosa Nigina, Oychechak, Qorako'zbeka, siyosat, xiyonat, sadoqat, yurtparvarlik.

EXPRESSION OF THE IMAGE OF WOMEN IN MIRMUKHIN'S
NOVEL “ TEMUR MALIK”

Muazzam Mamajonova is a 2 st year master of Uzbek literature at the
Faculty of Philology of Namangan State University

Annotation: The article reveals the image of women, their patience, faith, and heroism in the novel “Temur Malik” by Mirmuhsin. The artistic interpretation of the work is explained.

Key words: Temur Malik, Rurkon khatub, dancer Nigina, Aychechak, Karako-Uzbek, politics, betrayal, loyalty, patriotism.

“Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi, - deya ta'kidlaydi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev.¹

Ha, ha haqiqatdan ham ayol dunyo yaralibdiki aziz yaratilgan. U Ollonning yaratgan go'zal bir tortig'I, hayotimiz mazmuni. Ayol -ona, ayol-rafiqamiz, ayol-opa singil, ayol-rahbar, ayol-ustoz. Ayolni e'zozlash har bir xalqning, millatning go'zal bir xislatidir. Lekin johiliya davrida oilada qiz bola tug'ilishi bu musibat deya tushunishib chaqaloqlik davridayoq, tiriklayin ko'mib yuborishlari afsuski, juda ko'p uchragan. Allohingga hamd-u sabolar bo'lsinki, islom dini kirib kelgandan so'ng ayollarga nisbatan e'tibor, hurmat ancha yuqoriga ko'tarildi.

Hozirgi globallashuv jarayonida ham jamiyatimiz hayotida xalqimizning ma'naviyati, siyosiy hamda diniy savodxonligini oshirish davrning eng katta talabi bo'lib qolmoqda. Bu borada esa ayollar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. “Bugungu kunimizda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida ayollar huquqlari,

¹ <https://iv.uz> news|Shavkat Mirziyoyev. Ayollarga

erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy va huquqiy tenglik m asalasi mavzuning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Chunki hozirgi kunda dunyoning ko'plab mintaqalari ayollarning jamiyatdagi mavqei, ular huquqlarining poymol etilayotganligi bilan bog'liq jiddiy muammolar yuzaga kelyapti".²

Tarixiy asarlarga ham nazar tashlaydigan bo'lsak, o'sha paytdagi ijtimoiy hayotda ayollarga bo'lgan e'tiborni ko'rishimiz mumkin. Mirmuhsinning "Temur Malik" romanida ham ayollarga alohida urg'u berilgan. XIII asrda mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kelishi natijasida ko'plab ayollar juda ko'p qiynoqlarga solingan. Temur Malikning rafiqasi Oychechak juda ham jozibador, suyuqli yor edi. Asarni o'qir ekanmiz, boshida Oychechakka bo'lgan hurmatimiz baland edi. Nega deganda, Mirmuhsin ushbu ayolga berayotgan ta'rifidan ko'z oldingizga mard, jasur sarkardaning ayoli ham Temur Malikka mos bir vafodor ayol kelar ekan. Asar davomida mo'g'ullar bostirib kelgan bir paytda Shohmurod Ko'historiyning ayoli va bo'yi yetgan qizini mo'g'ullar zo'r'lamoqchi bo'lganida nomusini jonidan-da aziz bilib o'zlarini qal'a devoridan tashlab halok bo'lganligi, Sheryurak Shoshiyning xotini ham zahar ichib o'lganligini ko'rib bu ayollarda saqoqat, ayollarga xos bo'lgan iffatni ko'rdik.

Oychechak esa shu kecha obddan bezanib, pardozi-andoz qilib, ziyofatdan keyin So'qtu no'yon to'shagiga o'zini tashlab,"g'olib" ni ehtiros bilan mahkam quchoqladi. So'qtu no'yon "musulmon ayoli" Oychechakning erkalanishlari, qiligi' u qichiqlaridan nihoyatda mamnun bo'lib, bu tomonlarga bekorga kelmaganligi-yu, bu lazzat payg'omida qancha mo'g'ullarning yet tishlaganini ham tamoman unutdi.³

Oychechak hattoki umr yo'doshi va hizmatkor qo'lida qolgan uch yashar o'g'li Metinni ham unutdi.Oychechakning hiyonati bir marta bo'lmagan chunki bozor hokimi Ahmad ibn Moraz bilan ham hufyona zinokor aloqalari ham bor edi. Alal oqibat nima bo'ldiki, So'qtu no'yonni o'zigina bu ayolni jazoladi, rahm qilib o'tirmadi. Oxir-oqibatda xiyonatkorni jazosini mo'g'ullar beradilar. Agar haqiqiy turmush o'rtog'i, sarkardadek mard yori bo'lganda bunaqa ishni qilmasdi deb ham hayolladik. Oychechak Temur Malikka suyanchiq bo'lish o'rniga unga xiyonat qildi.

Niginaning go'zalligi va jozibali raqslari har qanday kishini o'ziga jalb etmasdan qolmas edi. Niginaning kelishgan qaddi-qomati, tog'liklarga xos oy yuzi shaxlo ko'zlari, go'yoki faqat Temur Malik uchun yaratilgandek edi. Nigina raqqosa sifatida juda ko'p shoh va shahzodalarni, hokimlarni, sarkardalarni uchratdi. Ularning Niginaga faqat raqqosa sifatida qarashlari uning g'ashiga tegardi. Xo'jandlik Temur Malikning esa san'at ixlosmandi sifatida uning raqslariga bo'lgan hurmati, ya'ni san'atga oshufta ko'ngil ekanligi va ayol kishini hurmat qilishi raqqosaning e'tiborini tortgan edi. Buning ustiga Niginaning Xo'jand yaqinidagi Vorug' qishlog'idanligi

² Giddens E. Sotsiologiya. -M: Editorial URSS. -1999.p.14

³ Mirmuhsin "Temur Malik" romani "Hilol media" nashriyoti Toshkent-2018. B.202.

go'yoki uni Temur Malik bilan yanada yaqinlashtirgandek tuyulardi. Temur Malikning og'ir, bosiqligi, mulohaza bilan ish tutishi, sarkardalarga xos bo'lgan qaddi-qomati Niginani maftun etgan edi. Nigina sevgan kishisiga turmushga chiqishini, farzandlarini ona bo'lib, tarbiyalashni, oddiy bo'lsa ham oilali bo'lishini juda xohlar edi.

Romanda Temur Malik Niginani o'z nikohiga olgandan keyin, ular uch kungina baxtiyor yashadilar xolos. Visol va ayriliq ikki ko'ngilni juda tezlik bilan ayirdi. Mo'g'ullarning saltanatga bostirib kelishi Niginani boshqa yurtlarga jo'nab ketishini taqozo etdi. Lekin taqdir taqozosi bilan umrining so'nggi kurlarida Nigina Temur Malik bilan uchrashdilar. Behisob boylikka ega bo'lgan bu sohibjamol sevgilisini vatangadolik dardidan qutqardi. Xorazmshoh saroyida uch gavharni qidirib, vazirlar qornini yordirgan kuni bu sohibjamolga chingizxon ham qiziqib qolgan edi. Xon yo'qolgan juda qimmatbaho bo'lgan Badahshon toshi bilan Niginani yonma-yon qo'yib ko'radi. Nigina o'n sakkiz yoshida raqs tushganida yuzlarcha yuraklarni maftun etib, bu dunyo go'zalligini yaratar edi. Uni kimlardir "Jannat qizi" degan edilar. Niginani Turkon xotun "Jodu ko'z" deb atagan. A'loddin Muhammad Xorazmshoh "Tojimdagi gavhar tosh" deb atar edi. Bu raqs malikasini shum taqdir o'zga yurtlarda qolib ketishiga sababchi bo'ldi.⁴

Yozuvchi Mirmuhsin tasvirlagan bu Nigina obrazi Xorazmshohlar saltanati davridagi yuzlab go'zal qizlar, raqqosalar orasida ajralib turuvchi, tarixiy manbalarda ham alohida tilga olingan raqqosa timsolidir.

Asarda Nigina timsolidan tashqari bir nechta ayollar timsoli berilgan. Turkon xotun, Oychechak, Binafsha beka, Qorako'z beka va boshqalar shular jumlasidandir. Ayniqsa, romanda tasvirlangan Turkon xotun timsoli ko'pchilikni diqqat e'tiborini tortadi.

Asarda go'zal, oqila, mard va jasurlikda yigitlardan qolishmaydigan Qorako'z beka timsoli ham tasvirlangan.

Har tomonlama go'zal bo'lgan Qorako'z beka Ahsikat begining qizidir. Lekin Temur Malikning Xorazmdan uylanganligini bilgan qizda kuchli rashk va alam paydo bo'ladi. Shunday bo'lsa ham Temur Malikka bo'lgan muhabbati va hurmati yuzasidan unga og'alarcha munosabatda bo'ladi. O'tror boshiga tushgan qora kunlarni eshitgan jasur qiz qo'lga qilich olib yigitlar kiyimini kiyib mardlarcha kurashadi va jangda xalok bo'ladi.

Yozuvchi Qorako'z beka timsolida ochiqko'ngil, mustaqil fikrli, vatanparvar ayol obrazini aks ettira olgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda bugungu kunda ayollarga bo'layotgan e'tibor, hurmat ko'zlarimizni quvontiradi. Ish sohasida ham, oilada ham ayollarning o'rni o'zgacha. Bejizga davlatimiz rahbari ham shunday demagan edi: "Ayollarga bitta yaxshilik

⁴ Mirmuhsin.Xo'jand qal'asi. . –Toshkent: Sharq, 1991. B. 120.

qilsak, o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi”.

Yurtning mustahkam bo'lishligi uchun ham ayollarimizga ko'makdosh bo'lishimiz, ularning turli soha va tarmoqlarda, fan borasida erkinliklar berishimiz, qobiliyat va imkoniyatlarini royobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish, shuningdek, oila institutini mustahkamlashdek buyuk ishlar bugungi kunning asosiy vazifalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –56 b.
3. Adabiyot nazariyasi “Hayot haqiqatidan badiiy haqiqatga” 2 tom T 1979 y
4. Mirmuhsin.Xo'jand qal'asi. . –Toshkent: Sharq, 1991.
5. Mirmuhsin “Temur Malik ” romani “Hilol media” nashriyoti Toshkent-2018.